



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Xudoynazarovasugdiyona@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning didaktik va metodik afzalliklari tahlil qilinadi. Unda raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarda adabiy matnni tahlil qilish, obrazlarni tushunish, badiiy tafakkurni rivojlantirish kabi ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, video lavhalar, audio kitoblar, elektron darsliklar, interaktiv prezentsiyalar kabi vositalarning dars jarayonida qo'llanishi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishi va ta'lim samaradorligini sezilarli darajada kuchaytirishi amaliy misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *Adabiyot ta'limi, multimedia vositalari, elektron darslik, interaktiv texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), raqamli pedagogika, dars metodikasi, badiiy tafakkur, o'quv motivatsiyasi.*

Аннотация: В данной статье анализируются дидактические и методические преимущества использования мультимедийных средств на уроках литературы. Освещаются способы формирования у учащихся навыков анализа литературного текста, понимания образов и развития художественного мышления с помощью цифровых технологий. Также на практических примерах показано, что использование таких средств, как видеоролики, аудиокниги, электронные учебники и интерактивные презентации, значительно повышает интерес учеников к урокам и улучшает эффективность обучения.

Ключевые слова: *Образование по литературе, мультимедийные средства, электронный учебник, интерактивные технологии, эффективность обучения, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), цифровая педагогика, методика проведения уроков, художественное мышление, учебная мотивация.*

Abstract: This article analyzes the didactic and methodological advantages of using multimedia tools in literature lessons. It highlights the ways in which digital technologies help students develop skills such as literary text analysis, understanding characters, and enhancing artistic thinking. In addition, the use of tools like video clips, audiobooks, electronic textbooks, and interactive presentations in the classroom is shown through practical examples to significantly increase students' interest in the lessons and improve the effectiveness of education.

Keywords: *Literature education, multimedia tools, electronic textbook, interactive technologies, learning effectiveness, information and communication technologies (ICT), digital pedagogy, lesson methodology, artistic thinking, student motivation.*

Zamonaviy ta'lim tizimi innovatsion texnologiyalar asosida yangilanib borayotgan bir davrda, dars jarayonini interfaol, qiziqarli va samarali tashkil etish o'qituvchidan yangi yondashuv va metodlarni qo'llashni talab etmoqda. Ayniqsa, adabiyot darslarida o'quvchilarning badiiy matnga bo'lgan qiziqishini oshirish, estetik didini shakllantirish, mustaqil fikrlash, obrazli tafakkur va matnni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish – ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.



Bu jarayonda multimediadan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Multimedia vositalari – ya'ni video lavhalar, audio matnlar, elektron darsliklar, interaktiv taqdimotlar, animatsiyalar va raqamli testlar – darsni jonlantirish, ko'rgazmalilik prinsipini kuchaytirish, o'quvchilarning e'tiborini faollashtirish va ularni darsga faol jalg etishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy matnni eshitish, ko'rish, muhokama qilish kabi ko'pkanalli qabul qilish shakllari orqali o'quvchining tushunish darajasi ortadi, adabiy obrazlar yanada jonliroq va esda qolarli bo'ladi.

Multimedia texnologiyalari orqali o'quvchilarga milliy va jahon adabiyotiga oid namunalarni zamonaliv shakllarda taqdim etish, ular asosida savol-javob, muhokama, tahlil mashqlarini tashkil etish – adabiyot darslarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli resurslar yordamida darsdan tashqari mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ham mumkin bo'lmoqda.

Ta'lim jarayonida axborotning o'zlashtirilish darajasi ko'p jihatdan o'quvchining uni qanday usulda qabul qilayotganiga bog'liq. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson miyasi turli sensor kanallar – ko'rish, eshitish, o'qish, muhokama qilish orqali bilimni har xil darajada o'zlashtiradi.

"O'rganish piramidasi" (Learning Pyramid) modeli dastlab 1960-yillarda National Training Laboratories Institute (Bethel, AQSh) tomonidan ilgari surilgan va hozirda ko'plab ta'lim tizimlarida qo'llanadi. Ushbu modelga ko'ra:

Faqat eshitish orqali (ma'ruza, audio darslar) – o'quvchi taxminan 10% gacha axborotni eslab qoladi.

Faqat ko'rish orqali (tasvirlar, slaydlar, video) – taxminan 20%.

Faqat o'qish orqali (kitob, maqola, yozma materiallar) – taxminan 30%.

Ko'rish + eshitish (multimedia vositalari: video dars, interaktiv taqdimot) – taxminan 50% gacha.

Muloqot va muhokama (guruh ishlari, savol-javob) – taxminan 70%.

Amaliy mashg'ulotlar (tajriba, mashq, dramatizatsiya) – taxminan 75–80%.

Boshqalarga o'rgatish yoki o'zi izohlab berish – 90% gacha axborot mustahkam esda qoladi.

Ushbu statistik ko'rsatkichlar multimedia vositalarining adabiyot darslarida qanday didaktik qudratga ega ekanini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, adabiy asarni nafaqat o'qish, balki uning audioversiyasini tinglash, asosiy epizodlarini videolavha tarzida ko'rish, interaktiv muhokama qilish orqali o'quvchining ko'proq tana a'zolari va his-tuyg'ulari ishtirok etadi, bu esa bilimni uzoq muddat eslab qolishga olib keladi.

Multimediadan foydalanish – bu nafaqat vizual va audio materiallarni darsga jalb qilish, balki o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirish orqali uning kognitiv faoliyatini kuchaytirishdir.

Shu sababli, zamonaliv adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanish, ayniqsa video, audiokitob, elektron platformalar kabi elementlar



nafaqat darsni boyitadi, balki o'quvchilarning eslab qolish darajasini keskin oshiradi.

Adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari juda ko'p bo'lib, ular o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bilimlarni yaxshiroq egallash imkonini yaratadi va ta'lif sifatini sezilarli darajada oshiradi. Multimedya vositalari yordamida darsda matnni tahlil qilish, personajlar va ularning obrazlarini tushunish, badiiy tafakkur va estetik sezgirlikni rivojlantirish kabi ko'nikmalarni shakllantirish mumkin.

Adabiyot darslarida multimedia vositalarini qo'llashning ko'plab usullari mavjud. Ular orasida video lavhalar, audio kitoblar, interaktiv taqdimotlar, raqamli testlar va elektron darsliklar eng ko'p ishlatiladigan vositalardir.

Video lavhalar: Video materiallar yordamida o'quvchilarga adabiy asarlarning qiziqarli qismlarini, darsning asosiy mazmunini ko'rsatuvchi vizual materiallar taqdim etiladi. Bu o'quvchilarda matnni tushunish va badiiy tasavvur qilishni yaxshilaydi. Masalan, she'riyat darslarida shoirlarning o'z she'rlarini o'qiyotgan videolarni ko'rish o'quvchilarning matnni qabul qilish va uning ma'nosini chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Audio kitoblar: Audio kitoblar adabiyot darslarida matnlarni eshitish orqali o'rganish imkonini beradi. Bu usul, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda samarali bo'lib, o'quvchilarga matnning o'qilishi va to'g'ri talaffuzi bilan tanishish imkonini yaratadi.

Interaktiv taqdimotlar: Power Point yoki boshqa taqdimot dasturlari yordamida adabiyot darslarida interaktiv taqdimotlar tashkil qilish mumkin. Taqdimotlarda adabiy asarlarga oid qisqacha tahlil, matnning ma'nosini ochish va interfaol savol-javoblarni o'tkazish darsni yanada samarali qiladi. Interaktiv taqdimotlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularga o'z bilimlarini real vaqtida sinovdan o'tkazish imkonini beradi.

Elektron darsliklar: Elektron darsliklar dars jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ular yordamida o'quvchilarga kerakli adabiy materiallar, qo'shimcha izohlar va resurslar taqdim etiladi. Elektron darsliklar o'quvchilarga adabiy asarlarni nafaqat matn shaklida, balki rasmlar, video va audio materiallar orqali ham o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Multimedia vositalarining ta'limga ta'siri keng qamrovli va ko'p jihatdan ijobjiy bo'ladi. Ular o'quvchilarda estetik sezgirlikni, ijodkorlikni, mustaqil fikrlash va mantiqiy tahlil qilishni rivojlantirishga yordam beradi. Video, audio va interaktiv materiallar o'quvchining o'rganish jarayoniga faol ishtirok etishini ta'minlaydi. O'quvchilarning matnni nafaqat o'qish, balki uning mazmunini vizual va eshitish orqali qabul qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu usul o'quvchilarda mustahkam va ko'p qirrali bilimlarni shakllantiradi.

Masalan, adabiyot darslarida o'quvchilarga o'qish, eshitish va ko'rish orqali adabiy asarlarni tahlil qilishning kombinatsiyasi ta'lif samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu usul o'quvchilarning xotira, fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday yondashuv bilan o'quvchilar matnni har tomonlama, chuqurroq o'zlashtiradilar. Multimedia



vositalarining ta'lif samaradorligini oshirishdagi o'rni katta. Ular darsni ko'rgazmali va interfaol tarzda tashkil etish imkonini beradi, shu bilan birga o'quvchilarni darsga jalb qilish va ularning diqqatini uzluksiz saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalari o'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun qulay sharoit yaratadi, chunki ular darsdan tashqari vaqtida ham darslik va qo'shimcha materiallardan foydalanishlari mumkin. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda multimedia vositalarining o'rni alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar video materiallar yoki interaktiv taqdimotlar orqali o'zlarining ilmiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, yangi bilimlar olishga va bu bilimlarni amaliyotda qo'llashga qiziqish uyg'otadilar.

Ko'plab o'qituvchilar va metodistlar adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning samaradorligini amaliyotda tasdiqlashgan. Masalan, ba'zi maktablarda elektron darsliklar va interaktiv taqdimotlar yordamida adabiyot darslari o'tkazilgan bo'lib, natijada o'quvchilarning bilim darajasi va motivatsiyasi ancha oshgan. Video lavhalar orqali o'quvchilarga mashhur adabiyot asarlarini tushuntirish va talqin qilishda ijobjiy natijalar qayd etilgan. Bundan tashqari, audiokitoblar va elektron resurslardan foydalanish o'quvchilarga mustaqil o'qish va darsdan tashqari faoliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Xorijiy tajribalardan biri sifatida Finlandiya ta'lif tizimida adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanish amaliyotini keltirish mumkin:

Finlandiya ta'lif tizimi dunyodagi eng ilg'or tizimlardan biri sifatida tan olingan bo'lib, bunda raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarining keng qo'llanilishi muhim o'rinni egallaydi. Ayniqsa, adabiyot fanida o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, badiiy asarlarni chuqur anglash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishda multimediadadan faol foydalaniladi.

Masalan, Finlandiya maktablarida adabiy asarlarni o'rganishda interaktiv elektron platformalar (masalan, Kipinä yoki Sanoma Pro) orqali matnlar videolar, animatsiyalar, interaktiv savollar va audiokitoblar bilan boyitilgan shaklda taqdim etiladi. O'quvchilar nafaqat matnni o'qiydi, balki mualifning hayoti, tarixiy kontekst va obrazlar tahlilini ham vizual va audio vositalar yordamida o'rganadilar.

Bunday yondashuv natijasida:

- o'quvchilarning adabiy tafakkuri va tasavvuri kuchayadi;
- matnga analistik yondashuv shakllanadi;
- o'quvchilarning darsga faolligi va qiziqishi ortadi;
- ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Shuningdek, darslarda mobil ilovalar va onlayn test platformalari orqali real vaqt rejimida o'zlashtirish darajasi baholanadi va individual yondashuv ta'minlanadi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning matnga chuqur kirib borishini ta'minlab, o'qituvchilarga ham dars jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Multimedia texnologiyalarining ta'lif jarayoniga kirib kelishi adabiyot fanining o'qitilish usullarini ham tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy



yondashuvlar bilan zamonaviy texnologiyalar uyg'unlashgan holda dars jarayoni yanada dinamik, qiziqarli va samarali tus oladi. Ayniqsa, badiiy matnlarning ko'pkanalli (audio, vizual, interaktiv) shaklda taqdim etilishi o'quvchilarning asarga nisbatan chuqur va emotsiyonal yondashuvini shakllantiradi.

Adabiyot darslarida multimedia vositalarining joriy etilishi o'quvchilarning tahliliy fikrlashiga, obrazli tafakkuriga, badiiy-estetik dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, zamonaviy o'quvchi ehtiyojiga mos ravishda ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil qilish imkonini beradi. Multimedia vositalari yordamida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning ishtiroki, bilimni mustahkamlash darajasi va ijodiy yondashuvi sezilarli darajada ortadi.

Xorijiy tajribalar ham ko'rsatadiki, multimediedan oqilona foydalanilgan adabiyot darslari o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, asarlarni mustaqil tahlil qilish va hayot bilan bog'lash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, multimedia texnologiyalari zamonaviy adabiyot ta'limining ajralmas qismiga aylanib bormoqda va o'qituvchining kasbiy mahorati ana shu vositalardan samarali foydalanish bilan ham belgilanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova N.S. "Ona tili va adabiyot ta'limida innovatsion texnologiyalar". T.: Fan, 2019.
2. Azizov S. "Adabiyot darslarida media vositalardan foydalanishning psixologik asoslari." // "Pedagogik mahorat" jurnali, 2020, №1.
3. Clark, R.C., & Mayer, R.E. "E-learning and the Science of Instruction". San Francisco: Pfeiffer, 2016.
4. Finnish National Agency for Education. "Using ICT in Teaching Literature". Helsinki, 2020.
5. Hasanboyeva R. "Multimedia vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda estetik didni shakllantirish." // "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2021, №4.
6. Islomova Z.M. "Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar". Andijon, 2021.
7. Jumaniyozova G. "Raqamli pedagogika asoslari." T.: Ilm Ziyo, 2022.
8. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: Ma'naviyat, 2008.
9. Normurodov A.X. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asoslari". T.: Innovatsiya, 2017.
10. Qurbanova M.X. "Adabiyot darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish". // "Ta'lim va rivojlanish" ilmiy jurnali, 2020, №3.
11. Rasulov Sh.T. "Adabiyot o'qitish metodikasi". T.: O'qituvchi, 2005.
12. UNESCO. "ICT in Education: A Curriculum for Schools and Programme of Teacher Development". Paris: UNESCO, 2011.
13. Warschauer, M. "The Role of Technology in Teaching and Learning Literature". Language Learning & Technology, 2006.



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5-7-SİNFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIY TİL XUSUSİYATLARİNİ O'RGATİSH METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSİON YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SİFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKİSTON VA TURKIYA TA'LIM TİZİMİ MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

